



DIRECTIONS OF ONOMASTIC RESEARCH IN LINGUISTICS

Yakupova Kamila Turmakhammetovna (Assistant Lecturer, Department of “English Language and Literature”, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajinyoz; e-mail: kamilayakupova1984@gmail.com)

Abstract. This article analyzes the directions of onomastic research in linguistics of proper names and common nouns. The historical evidence of culture and language shows that since ancient times, scholars have analyzed works of oral creativity and tried to understand the meaning of various poetic styles and devices, including proper nouns, that is, units associated with names.

Keywords: Proper names, common nouns, onomastics, linguistics, reference, speech sounds.

TILSHUNOSLIKDA ONOMASTIK TADQIQOT YO'NALISHLARI

Yakupova Kamila Turmaxammetovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasida assistent o'qituvchisi; e-mail: kamilayakupova1984@gmail.com)

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli va turdosh otlarning tilshunoslikda onomastik tadqiqot yo'nalishlari tahlil qilinadi. Madaniyat va tilning tarixiy dalillari shuni ko'rsatadiki, izlanuvchan olimlar qadim zamonlardan beri og'zaki ijod asarlarini tahlil qilib, turli xil she'riy uslub va vositalarning, shu jumladan atoqli otlar ya'ni ismlar bilan bog'liq birliklarning ma'nosini tushunishga harakat qilgan.

Kalit so'zlar: Atoqli otlar, turdosh otlar, onomastika, tilshunoslik, referentsiya, nutq tovushlar.

Аннотация. В статье анализируются направления ономастических исследований в лингвистике собственных и нарицательных имен существительных. Исторические свидетельства культуры и языка показывают, что с древних времен ученые анализировали устные произведения и пытались понять значение различных поэтических стилей и приемов, включая имена собственные, т. е. единицы, связанные с именами.

Ключевые слова: Имена собственные, имена нарицательные, ономастика, лингвистика, референт, звуки речи.

G.Frege ma'no va mazmun muammolariga bag'ishlangan bosh maqolasida tilshunoslikning mazkur muammolarini o'zaro o'xshashlikka asoslanib tushuntirishga harakat qilgan. Mulohaza yuritish jarayonida u ayni bir ob'yekt ikki jumlada bir xil nomlangani va mazmunga ega bo'lgani holda, turli ma'nolarni anglati olishi mumkinligi haqidagi xulosaga keldi, masalan, yulduz ob'yekti misolida, ular bir holatda Tong yulduzi, ikkinchisida - Kechki yulduz deb



ataladi. ("Abendstern" und "Morgenstern") [18]. Frege ham xuddi Russell kabi, atoqli otlarga yashirin tavsifga ega birliklar o'laroq qarab, ularga xos tavsif vositasida ularning referentini belgilaydi. Atoqli otning ma'nosini u tegishli bo'lgan tilni (yoki belgilar to'plamini) yetarli darajada biladigan har bir kishi tushunadi: lekin har doim uning yordami bilan ma'no faqat bir jihatdangina oydinlashadi. "So'z anglatgan mazmunni har tomonlama tushunish uchun biz bir vaqtning o'zida unga tegishli bo'lgan har bir ma'noni ko'rsatishimiz kerak. Ammo bu imkonsiz holat hisoblanadi. Belgi, uning ma'nosi va u ifodalovchi mazmun o'rtasidagi uzviy bog'liqlik belgining faqat ma'lum bir ma'noga mos kela olishi hamda ayni o'rinda bir predmetning mazmuni ifodasida bir necha belgining faollashuvi hisobiga amalga oshadi [18;28].

Ingliz tilshunosi A.Gardiner ham Mill kabi atoqli otlarning ma'nosi yo'qligini ta'kidlab, "atoqli ot" tushunchasining mazmunini unga xos referent mansubligi orqali aniqlanishini ta'kidlagan. Atoqli otlarni "faqat o'zigagina xos bo'lgan vazifasi tegishli ob'yekt yoki ob'yektlarni avval boshdan bog'liqlikka ega bo'luvchi yoki assotsiatsiya vositasida identifikatsiyalash yoki o'shanga yaqin vazifani amalga oshirishdan iborat hech qanday kug'aviy ma'noga boglanmasa ham, o'zigagina tegishli bo'lgan ma'lum tarzda talaffuz qilinuvchi tovush qobig'iga ega bo'lgan so'z yoki so'zlar guruhi" ga ega bo'lgan lekin hech qanday lug'aviy ma'no tashimaydigan identifikator sifatida belgilagan olim ism so'z turkumini "o'zi identifikatsiyalovchi ob'yekt yoki ob'yektlar bilan assotsiyasiya asosida bog'lanuvchi yoki boshidanoq ularga daxldor bo'lgan qandaydir ma'no ifodalashdan yiroq, yaqqol farqlanib turuvchi tovush qobig'idan kelib chiquvchi qobiliyati vositasida o'zining identifikatsiyalash vazifasini bajaradigan yoki bajarishga intiladigan so'z yoki so'zlar guruhi"[6 ;43]. Shu bilan birga, "signifikatsiyalovchi kuch" atoqli va turdosh otlar o'rtasidagi farqni ifodalaydi hamda faqatgina tovushning talaffuz qilinishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu ta'rifda atoqli otlar ma'nosi bilan tovush va etimologiya o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, tovushning talaffuz qilinishi asosida o'rnatilishi mumkin bo'lgan assotsiativ aloqalar e'tiborni tortadi.

G. Evans o'zining referentsiya haqidagi tadqiqotlarini davom ettirib, hech qaysi nazariya individuallashtiruvchi belgi (Evans ularni "singular terms" deb yuritgan)larni qo'llashdagi barcha jihatlarni va rang-barangliklarni to'laqonli qamrab ololmasligi haqidagi xulosaga keladi [9;89]. Olim referentsiyaning uch ko'rinishini farqlab tasniflagan, bular predmetga xos bo'lgan xususiyatlarga emas aksincha, so'zlovchining predmet haqida mavjud bo'lgan ma'lumotga asoslangan referentsiyasi, mavjud bo'lgan ko'rsatmaga asoslangan referentsiyasi hamda mavjud ma'lumotdan xabardorlikka asoslangan referentsiyalaridir.

Evansning atoqli otlar (mazkur holatda ko'proq nomlar termini mazmunga muvofiq keladi) haqidagi nazariyasi S. Kripkening qat'iy designatorlar (rigid designators) nazariyasi singari atoqli otlarning mazmun ifodalash xususiyatiga egaligini inkor qiluvchi postulatlariga asoslangani holda, ayni paytda Russell yoki Frege ning deskripsion kontseptsiyasini mutlaq rad qilgan. Ya'ni mazkur nazariyaga ko'ra, ob'yektning nomlanishi haqida ma'lum xulosa qilish uchun ma'no - mazmuniga bevosita aloqador tahlilni amalga oshirishdan ko'ra, nom (Evans ta'biri bilan aytganda "singular term") ni denotatga muvofiqlashtirishning o'zi yetarli bo'ladi. Shu tariqa, atoqli otlar qat'iy designatorlar deb yuritilib, deskripsiyalarga qarama – qarshi qo'yilgan, deskripsiyalar o'z navbatida qat'iy bo'lmagan, nomuayyan xususiyatga ega tushunchalar o'laroq talqin qilinib, har doim ham referentsiyalarga muvofiq kela olmaydi deb hisoblangan. Kripke atoqli otlar referentsiyasi borasida fikr yuritib, so'zlovchi ko'zda tutgan referentsiya hamda semantik referentsiyani bir – biridan farqlash lozimligini ta'kidlagan. Olimning fikricha bu holatda semantik referentsiya lingvistik konventsiya talabidan kelib chiqib shakllangani holida so'zlovchi ko'zda tutgan referentsiya esa, uning muloqot maqsadi

hamda muloqot konteksti asosida shakllanadi [11; 340-376]. D.N. Yermolovich bu holatda Kripkening nuqtai – nazariga qo`shilish mumkin deb hisoblagan, boisi, Kripke atoqli otlar referentsiyasida nomning real borliqdagi ob`yektga bevosita daxldorligini yaqqol ko`ra olgan, “bu esa, insonning aqliy faoliyati doirasi chegarasidan chiqish hamda voqe`likni inson ong faoliyatini inobatga olmasdan aks ettirish imkoniyatini anglatadi” [8;20].

Yuqorida keltirib o`tilgan qisqacha sharh shuni ko`rsatadiki, taqdim etilgan aksariyat nazariyalarning mualliflari J. Millga ergashib, atoqli otlarning hech qanday leksik ma`noga va hattoki umuman hech qanday ma`noga ega bo`lmasligini ta`kidlashgan. Ismlar (atoqli otlar, nomlar)ga mustaqil qo`llanish holatida hech qanday lug`aviy ma`no ifodalay olmaydigan identifikator maqomi berilib, faqat uni ifodalovchi tovushlarning o`ziga xos talaffuz qilinishiga asoslangan aniqlovchi funktsiyani bajara olishi ta`kidlangan.

Badiiy asarda ismning qo`llanilishi bilan bog`liq muammolar poetika fan sifatida shakllanganidan beri e`tirof etilgan. Biroq, madaniyat va tilning tarixiy dalillari shuni ko`rsatadiki, izlanuvchan olimlar qadim zamonlardan beri og`zaki ijod asarlarini tahlil qilib, turli xil she`riy uslub va vositalarning, shu jumladan atoqli otlar ya`ni ismlar bilan bog`liq birliklarning ma`nosini tushunishga harakat qilgan. Buning isboti sifatida F.de Sossyurning qadimgi hind-yevropa she`riy matnlarini o`rganish natijalarini keltirish mumkin bo`lib, olim qadimgi hind Vedalarida tovush va ma`no o`rtasidagi bog`liqlik masalasi tadqiqi bayon qilinganini ta`kidlab o`tgan [14 ;639]. Tilshunos olim qadimgi hind-yevropa she`riyati tilida ham semantik, ham sonik parallelizmlarni payqagan, u matnlarning bu o`ziga xos tuzilishini "anafonik (anaphonique)" va "anagrammatik (anagrammatique)" she`riyat deb atagan. Bundan tashqari, "tovushlarni takror qo`llash va tovush jarangdorligidan foydalanish nafaqat tovush simmetriyasiga erishish vositasi sifatida, balki birinchi navbatda she`rning og`zaki mavzusi bilan bog`liq holatda ro`yobga chiquvchi hodisa" ekani haqidagi munosabatlari aniqlandi [10;638]. Keyinchalik bu kashfiyot boshqa olimlarning tadqiqotlari bilan ham tasdiqlandi [3 ;10] Xususan, V.N. Toporov Sossyurning “So`zning tovush tarkibi tahlili vedalar mualliflari bo`lgan shoirlari tomonidan qunt bilan o`rganilgan so`zlarning talaffuz shakli haqidagi fanning asosi bo`lgan” degan xulosasini tasdiqlabgina qolmay, balki Sossyurning fikriga “tahlil natijalari keyingi sintezda - ajratilgan elementlarni bir butunga birlashtirishda ishlatilgan” mazmunida qo`shimcha qo`shishiga olib kelgan [15 ;10-11].

F. de Sossyur onomastika uchun alohida ahamiyatga ega fikrlarini quyida ajratib ko`rsatish o`rinlidir. Uning e`tiborini Vedalardagi alohida asar matnlari o`ziga qaratgan, olim ularning qurilish tamoyili "vaqti-vaqti bilan matn tarkibida ma`lum bir ism (atoqli ot)ning bo`g`inlari takrorlanishi" ni talab qilishini alohida ta`kidlagan va mazkur holatda o`sha ism albatta qaysidir ilohiy sub`yekt nomi bilan bog`lanishi lozim bo`lgan [14;642]. Sossyurning fikriga ko`ra, bunday takrorlashlar ma`lum maqsadni ko`zlab qilingan va u “muallifning asosiy maqsadi: muqaddas ismning bo`g`inlariga taqlid qilish” dir degan xulosaga keladi [16;640]. Matnni tuzishda shu tariqa, so`zlarning kuylangan ilohiy shaxs nomi bilan muqaddas aloqalarini ta`kidlash maqsadiga erishilgan va bu turdagi matnning tuzilishi matnga kiritilgan so`zlarning tovush tarkibining chuqur nazariy tahlilini amalga oshirishni talab qiladi. Bu holatda ovoz va ma`no o`rtasidagi munosabatni tushunish uchun "muhim tarkibiy qism – muammoning kaliti" atoqli ot bo`lgan. Madhiya bag`ishlangan ilohiy sub`yekt nomi elementlarining muntazam takrorlanishi, Sossyurning fikricha, hind-yevropa she`riyatining buyuk tamoyilidir [16;642]. Garchand, tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda Ferdinand de Sossyur nomi onomastika bilan bog`liq holda tilga olinmasa ham, uning atoqli otlar poetikasiga e`tibor qaratgan birinchi



tilshunos sifatida proprial leksika (atoqli otlar lug`aviy to`plami)ni o`rganishga qo`shgan hissasi juda muhim ahamiyatga molik hodisa.

Ayrim tovushlar va narsalarning ayrim sifatlari o`rtasidagi bog`liqlik haqidagi g`oyalarni birinchi bo`lib qadimgi faylasuflardan Platon o`z asarlarida sanab o`tgan. Faylasuf narsa va uning nomi o`rtasida mutlaq muvofiq keluvchi bog`liqlik borligi haqida bahs yurituvchi Kratel bilan ham, narsa va uning nomi o`rtasidagi bog`liqlik shartli hodisa ekanini ta`kidlovchi Germogen bilan ham ilmiy munozara qilar ekan, so`z yoki ayni holatda nom o`zi ifodalayotgan narsaning mukammallashtirilgan in`ikosi ekanini ta`kidlaydi. Shu tariqa, so`zning lug`aviy ma`nosi uning tovush shaklidan motivlanishi haqidagi ilk nazariyaga asos solingan [13;36-59]. Mazkur nazariya ma`lum darajada tovushning tovushga xos bo`lmagan tasavvurlarni yuzaga keltirish xususiyatiga asoslangan bo`lib, bu hodisa zamonaviy tilshunoslikda “birlamchi tovush simvolizmi (ing. sound symbolism – muallif izohi)” farazi doirasida yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

Umuman olganda Aristotel ham “so`zning go`zalligi tovushning o`zida yoki nimani anglatishida, shuningdek, xunuklikda yotadi” [1;27].

She`riy san`at mahoratiga bag`ishlangan tadqiqotlarda atoqli otlardan badiiy hamda ritorik maqsadlarda amaliy foydalanish tajribasi borasidagi xulosalar umumlashtirilib, tartibga solinishi qayd etilgan.

Galikarnaslik Dionisiy o`zining "So`zlarning bog`lanishi to`g`risida" risolasida nutq tovushlarining idrokga turli ta`siri, "harflar va bo`g`inlarni tanlash va birlashtirish" dan iborat shoirlar san`ati haqidagi fikrlarini bayon qilib, tinglovchiga ta`siri nuqtai nazaridan "harflar va ularning sifatlari" tavsifini bergan. Faylasufning ta`kidlashicha, “Bu harflar quloqqa boshqacha ta`sir qiladi, barcha yarim unlilar ichida eng yumshog`i  $\lambda$  tovushi quloqni silaydi, unga o`xshash harflarning eng kuchlisi ρ tovushi esa, quloqni bezovta qiladi. Burg`uning tovushiga o`xshash burun orqali talaffuz qilinadigan μ va ν tovushlari quloqqa o`rtacha darajada ta`sir qiladi. Xunuk va yoqimsiz σ tovushi ko`p miqdorda eshitilganda, quloqni bezovta qiladi harflardan tuzilgan yoki to`qilgan bo`g`inlar bir vaqtning o`zida har bir harfning alohida xossalarini ham, harflarning qo`shilishi yoki qo`shilishi natijasida olingan umumiy assotsiatsiya xususiyatlarini ham saqlab qolishi shart. Ana shu tarzda yumshoq va qattiq, silliq va qo`pol, quloqqa yoqimli va yoqimsiz, o`tkir va noaniq va son-sanoqsiz boshqa turli xil tabiiy his-tuyg`ularni keltirib chiqaradigan tovushlar paydo bo`ladi” [7;87]. Dionisiy she`riyat nafisligini ta`minlash uchun she`riy matn tinglovchida mazmunga mos keladigan tuyg`ularni uyg`otadigan tovushlardan iborat bo`lishi shart deb, shoirning vazifasi sifatida esa, “mazmun ifodasi xunuk so`zlarning tabiatini muqoyasa qilish, o`zaro bog`lash hamda qorishtirib yuborish orqali yashirish”dan iborat deb hisoblagan. Bu holatda mahorat tovushlarning talaffuz orqali hosil bo`luvchi tabiiy sifatlarini mohirona uyg`unlashtirish, so`z tarkibida "harflarni to`g`ri tanlab olish" vositasida uning mazmun planini u “uyg`otadigan his-tuyg`ularga moslashtirish” iborat: "Homer, go`zal yuz va zavq uyg`otadigan go`zallik qiyofasini taqdim etish uchun eng jarangdor vositalar, unlilar, eng yumshoq yarim unlilardan foydalanadi, bo`g`inlar tarkibini undoshlar bilan aralashtirmaydi, talaffuz qilish qiyin bo`lgan harflarning artikulyatsiyasi bilan tovushni qisqartirmaydi, balki quloqqa silliq oqadigan harflarning o`ziga xos yumshoq konstruksiyasini yaratadi. Va, aksincha, ayanchli, dahshatli yoki yovvoyi manzarani taqdim qilish uchun u unlilardan eng jarangdor emas, balki eng baland shovqinlilarini, jarangsiz tovushlardan esa, talaffuz qilish uchun eng qiyin bo`lganlarini tanlab olib, ular bilan so`z bo`g`inini to`ldiradi” [16]. Faylasuf Dionisiy uchun mahoratning eng yuqori cho`qqisi — atoqli otlardan unumli foydalanish hisoblangan. Bunga misol qilib Homerni keltirish mumkin, u qo`llagan “quruq,

jarangsiz” talaffuzga ega atoqli otlari she’riy nutqqa shu qadar mohirlik bilan joylana olganki natijada, bu atoqli otlar “jarangdor, ohangdor” ko’rinishga ega bo’lib ketadi. Bu haqda Dionisiy quyidagi fikrni bildiradi: “Istalgan shoir yoki notiq uchun Beotiya (qadimgi Yunoniston - muallif) shaharlarining nomlari Giriya, Mikalessa, Greyi, Eteon, Skola, Fisbi, Onxesta, Evtreza sanab o’tilishi ularning hech qanday go’zallik yoki chiroy ifodalamasligi haqidagi xulosasiga olib kelgan bo’lardi, Homer esa o’z asarlarida bu nomlarni shu qadar mohirona qo’llaganki, ularni hayratlanarli darajadagi qo’shimchalar bilan aralashtirib yuborganki, natijada bu shahar nomlariga ulug’vor, tantanavor tus berilishiga erisha olgan” [16;186-192].

Ilmiy fikrning yutug’i amaliy tajriba natijalari bilan qo’shilgan holatda, qadimgi ritorika va poetikaning paydo bo’lishi edi. Mazkur jarayonda birinchi bo’lib ritorika nazariyasi qonuniyatlarini va badiiy matn qurilishiga qo’yiladigan talablarning shakllantirilishi bo’lgan. Ko’rsatmalar orasida har qanday ritorikaning majburiy va ommabop qismi (“elocutio” - taqdimot) bo’lgan adabiy asarlarni ritmik va tovush planiga ko’ra to’g’ri tashkil etish bo’yicha tavsiyalardan iborat bo’lgan [4;39].

R. Yakobsonning qadimgi faylasuflar tomonidan ilgari surilgan tovushning nutq faoliyatidagi o’rni haqidagi fikrlari faqat "yorqin taxminlar" edi [17;32] degan ilmiy xulosasiga qo’shilgan holda, shuni ta’kidlash kerakki, aynan ular tillarni chuqur o’rganishda ko’plab dastlabki nazariy pozitsiyalarni yaratishgan. Shunday qilib, stoiklar so’zning tabiati haqida fikr yuritib, har bir so’zning **σῶμα** - tovush tanasi borligini aniqlashga muvaffaq bo’lishgan. XX asr tilshunolaridan S. Bulgakov so’zning xususiyatlari borasida mushohada yuritarkan, uni "bizning nutq organlarimiz tomonidan ishlab chiqarilgan ovozli tovushlar va shovqinlarning kombinatsiyasi" deb ta’kidlagan [2 ;3]. Stoiklarning qarashlarini davom ettirib, rivojlantirar ekan, olim so’z o’ziga tegishli tovush tanasisiz mavjud bo’la olmaydi, deb qayd etgan hamda har qanday holatda ham so’zning "haqiqatdan qo’llaniladigan (yuzaga chiqariladigan)" tanasi mutlaqo muhim ahamiyatga molik ekanligini, ayni o’rinda “ o’sha tovush tanasining talaffuz qilinishi, yoki sxematik chizmalarda aks ettirilishi, yoki faqat tasavvurimizda (musiqiy notalarning chalinishi yoki chalinmasligidan qat’iy – nazar o’zida musiqiy ohangni aks ettira olgani kabi) aks ettirilishi juda muhim ahamiyatga molik emas” ekanini ham keltirib o’tgan [16].

Nutq tovushlarining o’ziga xos akustik xususiyatlarini, ularning idrok etishga ta’sir qilish qobiliyatini (ongli yoki intuitiv tarzda) amaliyotda qo’llash tajribasi poetika fanining so’z san’ati mahoratini takomillashtirish ta’limoti sifatida paydo bo’lishiga olib keldi. Avvaliga bu qadimgi hind yozma manbalarining aks ettirishicha, she’riyat qonunlari haqidagi shoirlarning o’zlari yaratgan nazariya edi. Qadimgi hind poetikasi so’z “teran hamda pinhona ta’sir” etuvchi ma’no ifodalasagina oliy poetik ifoda (*divani*) darajasiga ega bo’la oladi deb hisoblagan hamda shu asosda “so’zning ma’nosi va shakli uning zohiriy ma’nosini ochib beradi va ayni paytda so’zning botiniy ma’nosini ham unga bo’ysundiradi” degan xulosaga kelgan [12;19]. She’riyatning yashirin mazmunini ochish she’riy kontekstda sodir bo’lsa, uni ifodalash imkoniyati esa so’zda mujassam bo’ladi.

So’zning mazmun hamda shakl qiyofasi o’rtasidagi bog’lanish borasida Germaniyada V. fon Gumboldtning ta’limoti muhim ahamiyatga ega bo’lgan. U so’zlarni "alohida tushunchalarni ifodalovchi belgilar" sifatida ko’rib chiqqan hamda "tovush shaklini tilning ichki qonunlari bilan uyg’unlashtirish" vositasida "so’zda har doim tovush va tushunchaning qo’shaloq birlashuvi"ga olib kelishi, bu esa o’z navbatida “yuqorida tilga olingan har ikki elementni o’zaro birikib ketishiga sabab bo’lishi” haqida mulohazalarini bayon qilgan [5;73]. Gumboldt, ehtimol, birinchi bo’lib tilning “barcha tovush shakliylirliklari til tarkib tuzilishi bilan mutlaq

muvofiglikka erishgandagina” namoyon bo’la oluvchi elementlarning o’zaro mutanosiblik qonuniyati asosiga qurilgan tabiati haqida mulohaza yuritgan. Shu tariqa, til o’z asosiga ko’ra, “birlashtirilgan qismlardan hech birida mavjud bo’lmagan qandaydir yangi tushuncha yaratuvchi” sintezning hosilasi sifatida ro’yobga chiqadi [16;82-86].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Аристотель, 2000, с. 27
2. Булгаков, 1998, с. 3
3. Воронин, 1982, с. 10
4. Гаспаров, 1991, с. 39
5. Гумбольдт, 1956, с. 73
6. Gardiner, 1957, p. 43
7. Дионисий Галикарнасский, 1978, с. 87
8. Ермолович, 2004, с. 20
9. Evans, 1984, p. 89
10. Иванов, 1977: 638
11. Крипке, 1982, с. 340-376
12. Муратов, 1990, с. 19
13. Платон, 1936, с. 36-59
14. Соссюр, 1977, с. 642
15. Топоров, 1985(2), с. 10-11
16. O’sha asar C 640.
17. Якобсон, 1985, с. 32
18. Frege, 1892